
“Ichan qal’a” muzey-qo’riqxonasi fondidagi qadimiy qo’lyozmalar raqamlashtiriladi

Xorazm Ma’mun akademiyasi hamda “Ichan qal’a” muzey-qo’riqxonasi o’rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Hamkorlik memorandumi asosida Xorazm Ma’mun akademiyasining bir guruh olimlari muzey-qo’riqxona fondidagi noyob qo’lyozma manbalarni raqamlashtirish ishlarini boshladilar.





Ma’lumot o’rnida, muzey-qo’riqxona fondi Arab Muhammadxon madrasasida joylashgan. Fondda 400 dan ortiq noyob manbalar mavjud bo’lib, olimlar zahmati va sa’y-harakatlari tufayli ular xalqimiz foydalanishi uchun qulay tarzda elektron platformasiga joylashtiriladi. Ilmiy tadqiqotlar davomida aniqlangan eng noyob qo’lyozmalarni Xorazm Ma’mun akademiyasi tarkibidagi doimiy muzey-ekspozitsiyasiga qo’yish rejalashtirilmoqda. Pirovardida, millatimizning ko’p asrlik tarixi, adabiyoti, madaniyat va ma’rifatiga oid noyob qo’lyozmalar kelajak avlodga zarar yetmagan holda yetkazilishi ta’minlanadi.